

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori

2018 yil yakuni bo'yicha hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 34 ta sug'urta kompaniyasi tomonidan 6609999 ta shartnomalar tuzilgan yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 99,9 foizni tashkil etdi.

Respublika bo'yicha sug'urta summasi jami 597450,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, 2017 yilga nisbatan 12,5 foizga yoki 66428,8 mlrd. so'mga ko'paydi. Ixtiyoriy sug'urtaning ulushi 79,9 foiz (477649,1 mlrd. so'm) bo'lsa, 20,1 foizi (119801,3 mlrd. so'm) majburiy sug'urtaga to'g'ri keladi.


2018 yilda sug'urta mukofotlari tushumi 1694,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan ixtiyoriy sug'urta 1350,4 mlrd. so'm (79,7 foiz umumiy summadan), majburiy sug'urta 344,1 mlrd. so'm (20,3 foiz). 2018 yilda jami sug'urta to'lovlari hajmi 442,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2017 yilning shu davrida 252,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

1



O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori

Tuzilgan shartnomalar soni va hajmi (2017-2018 yillar) bo'yicha



2018-yil uchun respublika bo'yicha sug'urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

mln.so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Tuzilgan shartnomalar soni (birlik)	Sug'urta summasi	Sug'urta mukofotlari tushumi	Sug'urta to'lovlari
Jami	6609999	597450333,3	1694485,8	442840,0
<i>shu jumladan:</i>				
Ixtiyoriy sug'urta	3936130	477649069,4	1350378,4	368680,9
Hayotni sug'urta qilish tarmog'i jami	21716	461336,3	403615,9	247382,4
Umumiy sug'urta tarmog'i	3914414	477187733,0	946762,5	121298,5
<i>shu jumladan:</i>				
Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	2522179	21023629,9	27783,1	6687,4
Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	61568	24736285,1	27638,3	15773,0
Yer usti transporti vositalarini sug'urta qilish	103519	12308269,2	191478,3	17614,1
Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	2001	1352763,0	4502,8	1296,8

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori

davomi

mln.so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Tuzilgan shartnomalar soni (birlik)	Sug'urta summasi	Sug'urta mukofotlari tushumi	Sug'urta to'lovlari
Aviatsiya sug'urtasi	167	140311649,4	13764,4	-
Dengiz sug'urtasi	1	610,8	1,9	-
Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	23521	40180019,3	18474,2	1559,3
Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	384653	148705572,1	262409,8	6693,2
Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	570719	58163083,5	127366,8	4299,9
Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	51363	1730037,3	23995,6	226,7
Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	2	104,0	1,7	0,0
Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	-	-	-	-
Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	14411	7505433,5	17526,8	2916,1
Kreditlarni sug'urta qilish	141759	12599315,6	151853,9	14898,1
Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	240	473753,9	3300,7	859,0
Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish	38310	8097186,2	76664,0	48475,0
Tibbiy sug'urta	27679	4677812,0	21355,9	13702,2
<i>shu jumladan:</i>				
Yuridik shaxslar	4697	971532,6	16693,6	10841,1
Jismoniy shaxslar	22982	3706279,5	4662,4	2861,2

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori

2018 yil uchun respublika bo'yicha sug'urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

mln.so'm


Ko'rsatkichlar nomi	Tuzilgan shartnomalar soni (birlik)	Sug'urta summasi	Sug'urta mukofotlari tushumi	Sug'urta to'lovlari
Majburiy sug'urta	2673869	119801264,0	344107,5	74159,0
<i>shu jumladan:</i>				
Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy sug'urtasi	9	2355760,7	5899,1	4210,9
Soliq idoralari xodimlarining majburiy davlat sug'urtasi	1	167183,0	451,4	42,3
Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish	8277	17645457,3	5635,4	438,2
Obyektlarni davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug'urta qilish	12428	10020917,1	19660,8	646,4
Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish	2612101	32142053,2	162842,5	33020,6
Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish	38604	38884376,3	128456,9	30433,6
Majburiy sug'urtaning boshqa turlari	2449	18585516,3	21161,3	5366,9
Umumiy sug'urta tarmog'idan:				
Norezidentlar	64477	42944285,4	59757,6	4813,6

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori

<i>davomi</i>	<i>mln.so'm</i>			
Rezidentlar	3849937	434243447,6	887004,9	116485,0
shu jumladan:				
Davlat boshqaruvi organlari va byudjet tashkilotlari	5597	2568169,2	8783,4	130,4
Tijorat (xo'jalik hisobidagi) nomoliyaviy tashkilotlar	293990	328538398,3	408404,3	83865,4
Nodavlat notijorat tashkilotlar	33848	14479552,0	59178,9	2371,1
Moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	132264	21939539,7	208709,2	4974,8
Jismoniy shaxslar	3384238	66717788,4	201929,0	25143,3
Fuqarolarning mablag'lari hisobidan ixtiyoriy sug'urta qilish	3447004	72954180,5	558054,6	244110,9
Fuqarolarning mablag'lari hisobidan majburiy sug'urta qilish	2302914	29950562,1	106338,8	27607,1
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xo'jalik yurituvchi sub'ektlari sug'urtasi	140081	35859773,6	90222,0	9063,7

2017-2018 yillar uchun respublika bo'yicha sug'urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'satkichlari

ming dona



O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori

2018 - yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash operatsiyalari

mln.so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Jami	Shu jumladan:		
		O'zbekiston Respublikasi sug'urta tashkilotlari-norezidentlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha		O'zbekiston Respublikasida joylashgan sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha
		MDH mamlakatlari	boshqa mamlakatlar	
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari)	41985,0	1251,9	8436,2	32296,9
Qayta sug'urtalashga berilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari)	207038,7	13658,3	155473,9	37906,5
ulardan: retrotsessiyani hisobga olmagan holda	207038,7	-	-	-
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlari	24668,0	33,0	-	24635,0
Qayta sug'urtalashga berilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlariidagi qayta sug'urtalovchilar ulushi	29669,5	212,9	576,5	28880,1

➤ Sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

➤ Qonunda ko'rsatilgan shaxslarga sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkini yoxud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o'z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug'urta qilish (majburiy sug'urta) majburiyati qonun bilan yuklangan hollarda sug'urta ushbu bobning qoidalariga muvofiq shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori

➤ Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'lash) majburiyatini oladi.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni
rivojlantirish statistikasi boshqarmasi**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat
statistika qo'mitasi**

Tel: (71) 230-80-75